



OILA MUHITIDA BOLALAR RUHIYATI VA XULQ HUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

YULCHIYEVA SHAXNOZA

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANIDAGI

MIRZAAZIZOV NOMIDAGI 1- SONLI

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGI

Annotatsiya: Hozirgi kunda kelajagimiz poydevori bolgan yoshlarning ta'lim tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo'lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo'lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzat qilish kabi tushunchalar o'rin olgan .

Kalit so'zlar: oila, genotip, kommunikatsiya, empatiya.

Vatanni sevish va burch kabi hislatlarning barchasi oilada shakllanadi. Aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi oqibatida kelib chiqmoqda. Yosh oilalarimizda bolalar, o'smirlar, katta kishilar va boshqa shaxslarga nisbatan kommunikativ shaxslar aro muloqat qoniqarli emasligi xozirga vaqtda ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, «biz» tushunchasi va unga munosabat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Kalit so'zlar: shaxs, an'ana, urf-odat, munosabat, ota-ona, xarakter, muhit, tarbiya, nuklear oila. KIRISH Bolaning oilada shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi omillarning asosiysi bevosita muhit va



mikromuhitdir. Avvalo, bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, xarakterini shakllantiruvchi jamoa, uning ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari, maktab pedagoglar jamoasi va boshqalardir. Mikromuhit insonga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi:

- jamiyat tomonidan tashkil etilgan stereotiplar ya'ni, an'analar, qoidalar, me'yor va kundalik hayotdagi odatiy sharoitlar orqali;

- shuningdek, yaqin muhitning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari natijasida bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga eng muhim omil sifatida birinchi navbatda oila muhiti eng kata tasir ko'rsatadi. "Oila hayotining abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor. Bola tug'ilganidan boshlab oila muhitida yashaydi, ulg'ayadi, oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar o'smir zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi". Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo'lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo'lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzat qilish, Vatanni sevish va burch kabi hislatlarning barchasi oilada shakllanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qator komponentlari oilada shakllanib borishi bilan birgalikda, nosog'lom bo'lgan oila sharoitida tarbiya topayotgan farzandlar xulqatvorida o'ziga xos bo'lgan salbiy individual psixologik xususiyatlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqdadir. Bir guruh psixologlarning aniqlashicha, xarakterning yangi sifatlarini yuzaga kelishi va ularning mustahkamlanishi real vaziyatni taqozo etadi. Shuning uchun ham xatti-harakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter taqdirni yaratadi, degan fikr mavjud. Xarakter qandaydir turg'un va o'zgarmas xususiyat emas. Jumladan, bolalik yoshida xarakterning xususiyatlari odatda "jiddiylashish", "boshqacharoq bo'lib



qolish” tarzida ko`rinadiki, bu hol ijtimoiy omillardan ya’ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatning murakkablashuvi, gormonal yetilish natijasida namoyon bo`la boshlaydi. Shaxs xarakterdagi o`zgarishlarni yetarlicha hisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Ayni shu davrda bola xarakterida aktsentuatsiya xususiyatlari, jumladan, emansipatsiya reaksiyasi kattalar qaramog’idan “ozod” bo`lishlik, tengqurlari bilan guruhlashish reaksiyasi, ishtiyoq reaksiya, xobbi reaksiyasi kabilar ustivorlik qiladi. Aynan bolalar o`rtasida sodir etilayotgan deviant (xulqi og’ishgan) xulq-atvor ko`rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo`lgan illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to`g’ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqmoqda. Bunda, ota-onalar farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo`lishi, oilada sog’lom turmush tarzini to`g’ri yo`lga qo`yilmaganligi, ota-onalarni farzandlarining yoshiga xos bo`lgan psixologiyasini, ularga xos bo`lgan shaxslararo munosabatlar to`g’risidagi bilimlarini yetishmasligi tufayli jamiyatimiz uchun zid bo`lgan xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi, natijada, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o`rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini ochib berishligini taqozo etadi. Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar insonning ongiga bevosita ta’sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta’sirining chuqurroq va mustahkamroq bo`lishiga odamning o`zi yordam beradi. Ma’lumki, bolalar o`z tabiatlariga ko`ra, yoshlik chog`laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo`ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha hatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu hatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o`zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko`cha-ko`yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o`zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar. To`g’ri, hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan oilaning etnopsixologik xususiyatlaridagi milliy barqarorlik susayib, zamonaviylashish tendentsiyasi yaqqol ko`zga tashlanmoqda. Bu fikrga V.V.Boyko ham qo`shilib, bolalarda xarakter shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy oilalarning o`ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ajratib ko`rsatadi:



- Birinchidan, oilaning nuklearlashib borishi oqibatida yani oilada er-xotin va farzandlardan iboratligi zamonaviy kam farzandli nuklear oilalarning ko'p avlodli oilalardan farqli ravishda bola xarakterining shakllanishida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etadi. Bunday oilalarda ko'pincha shaxslararo munosabatlarning qisqa zanjiri ustunlik qiladi, oila a'zolarining o'zaro bir-biriga ta'sir etish vositalari chegaralangan, shuningdek, taqlid qilish uchun namuna va vaziyatlar ham kam shakllanganligi bilan farqlanadi.

- Ikkinchidan, oiladagi o'ta bog'liq va bir xildagi munosabatlar oqibatida bolalarning otaona xulqi namunalarini mustahkam egallashlari ehtimolligini oshiradi. Ota-onalar xulqatvoridan tanlab olish chegaralangan bo'lganligi sabab, bolalar ijtimoiy-tipik xususiyatlarni egallashi, qaysiki, o'zida ham mikromuhit, ham individual xususiyatlarining aks etishi ehtimolidan holi emasdir. Keltirilgan turli ilmiy ma'lumotlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, zamonaviy oilaning o'ziga xos xususiyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun insonparvarlik tajribasining cheklanganligi bilan ifodalanadi. Bazi yosh oilalarimizda bolalar, o'smirlar, katta kishilar va boshqa shaxslarga nisbatan kommunikativ tolerantlik (bag'rikenglik) sifatleri yetarlicha o'z aksini topmaganligi, oila a'zolari o'rtasida yetarlicha ma'lumot almashinish chegaralangan, to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, bori ham hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, «biz» tushunchasi va unga munosabat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina holatlar oqibati sifatida yuqori darajada bolalarning «personifikatsiyasi», ya'ni oila davrasida bolalarning o'z «men» ini ko'rsatishi hisoblanib, bu o'zining haqligini ta'kidlash, o'zini ota-onalarga qarama-qarshi qo'yish, ularga qarshi harakatlar qilish, ularning qadrini, obro'sini ni inkor etish, ular berayotgan maslahatlardan to'liq foydalanmaslik orqali namoyon bo'lmoqda. Bu esa bola xarakter xususiyatlariga xos bo'lmagan begonalashishning ayrim shakllarini yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayni vaqtda oilada shakllangan oila a'zolarining begonalashishi bolalarning boshqa doiralarda ya'ni, turli guruhlar va soatlab axborot vositalari bilan band bo'lishiga olib kelmoqda. Oila



a'zolari o`rtasidagi kommunikativ a'loqalarning cheklanganligi, qondirilmagan shaxslararo munosabatlarnatijasida bolalar o`zining ehtiyojini, endi norasmiy guruhlariga qo`shilish, noan'anaviy mashg'ulotlar bilan shug'ullanayotganini kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бойко В.В. Трудный характер подростков. - СПб.:Издательство «Союз», 2002.
2. Shoumarov G'.B. "Oila psixologiyasi" "SHARQ" 2008yil
3. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o,,quv qo,,llanma M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O,,qituvchi, 1974. – 194 s. 4. Dostmuhammedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunsova G., Ziyavitdinova G. "Umumiy psixologiya". Toshken, 2020-yil.